BOLALIK DAVRIDAGI KASALLANISHLAR VA NUQSONLARNING YURAK-QON TOMIR TIZIMIGA TA'SIRI

Nomozboyeva Maftuna Abduhamidovna - assistent
Samarqand davlat tibbiyot universiteti (Samarqand, O'zbekiston)

Tadqiqot maqsadi: *Inson hayoti davomida kasallanishlarning organizmda yillar o'tib salomatlik holatiga o'z ta'sirini o'tqazishini ko'rib chiqish hamda kasallanishlardan tashqari uning bolalik davridagi yashash sharoiti va hozirgi kundagi hayot tarzi, ovqat iste'moli shuningdek, yashash tarzining bolalik davridagi kasallanishlar va nuqsonlarning yurak-qon tomir tizimiga ta'sirini o'rganish bugungi kundagi dolzarb masalalarning bir qismidir.*

Tadqiqot materiallari: *tadqiqot uchun materiallar Samarqand Shahar SEO va JSB, BO'G bo'limi statistikasi hamda Samarqand viloyat Ishtixon Tuman Tibbiyot Birlashmasi Politravma bo'limiga salomatligidan shikoyat bilan kelgan bemorlarning kasallik tarixini o'rganish natijasida bemrolar yoshligida boshidan kechirgan turli kasalliklarning tahlillari.*

Xulosa: *Maqolamizni yakunida xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bolalik davridagi har qanday zararlanish va kasallanishlar inson organizmida albatta o'z izini qoldiradi. Buni isboti misolida organizmda holis bo'uvchi immunitet hujayralarining hosil bo'lishini keltrishimiz mumkin. Bu immunitet hujayralari inson umri davomida yoki vaqtinchalik o'z faoliyatini olib boradi.*

Kalit so'zlar: *kasallanishlar, yurak-qon tomir tizimi, nuqsonlar, yashash sharoiti, turmush tarzi.*

ВЛИЯНИЕ ДЕТСКИХ ЗАБОЛЕВАНИЙ И НЕДОСТАТКОВ В СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТОЙ СИСТЕМЕ

Номозбоева Мафтуна Абдухамидовна - ассистент
Самаркандский государственный медицинский университет (Самарканд, Узбекистан)

Любой ущерб детству и болезнь определенно оставляют свой след в человеческом теле. Это может быть частью образования иммунных клеток, которые происходят в организме на примере доказательства. Эти клетки иммунитета выполняют свою деятельность на протяжении всей жизни или временной.

Ключевые слова: *болезни, сердечно -сосудистая система, недостатки, условия жизни, образ жизни.*

THE IMPACT OF CHILDHOOD DISEASES AND SHORTCOMINGS IN THE CARDIOVASCULAR SYSTEM

Nomozboyeva Maftuna Abduhamidovna - assistant
Samarkand State Medical University (Samarkand, Uzbekistan)

Research Purpose: *In addition to the disease during human life, the living conditions of childhood and childhood of childhood infections and childhood infections, and defects in the cardiovascular infections of the cardiovascular infections are still part of the day. As a result of the study of the medical history of patients who incite the illness, analysts of various diseases that are experienced in young people.*

Research materials: *As a result of the study of the medical history, the analysis of various diseases, as a result of the Samarkand city of Seo and JSB, and the Police of Police of the Samarkand region medical association, and the Analysis of various diseases.*

Research materials: *As a result of the Statistics Department and Public Health Department of Samarkand, Samarkand, as well as the Status of the City Epidemiology, and the Polish Higids of the Samarkand region, and the Analysis of the various diseases, which are subjected to since the youth of the Samarkand region.*

Keywords: *Diseases, cardiovascular system, shortcomings, living conditions, lifestyle.*

Mavzuning dolzarbligi: Butun dunyoda yurak-qon tomir tizimi bilan kasallangan bemorlar soni yildan yilga ortib boryapti. Bunga sababni nosog'lom turmush tarzi (noto'g'ri ovqatlanishlar, alkogol iste'moli, og'ir mehnat sharoitlari, stress va depressiya hamda fast foodlarning turi ko'payishi va uning iste'moli ommalashishi) hamda psixoemotsional holatlarni sanab o'tishimiz mumkin.

Bolalik davrini sifatli ovqatlanish va sog'lom turmush tarziga e'tibor bilan o'tqazishda turli muammoli va infeksion kasalliklarga chalinish ehtimoli yuqori bo'lgan sharoitlarda ulg'aygan organizm kelajakda turli kasalliklarni boshidan o'tqazar ekan, albatta yuqoridagi faktorlarning qoldirgan natijasi ta'sir qiladi. Misol tariqasida organizmda immunitet hosil bo'lishi, uning organizmda qancha vaqt mavjudligi yoki buning aksi sifatida organizda ma'lum or-


ganda kompensatsiya darajasi yoki dekompensatsiya darajasiga olib kelishini ko'rsatishimiz mumkin. Yurak-qon tomir tizimida ham shunday kasalliklar natijasida kelib chiqqan zararlanishlar bolalik davridagi kasallanishlar natijasi bo'lishi bilan bir qatorda davomiy davolanishlarga olib kelishi mumkin.

Tadqiqot maqsadi: Inson hayoti davomida kasallanishlarning organizmda yillar o'tib salomatlik holaiga o'z ta'sirini o'tqazishini ko'rib chiqish hamda kasallanishlardan tashqari uning bolalik davridagi yashash sharoiti va hozirgi kundagi hayot tarzi, ovqat iste'moli shuningdek, yashash tarzining bolalik davridagi kasallanishlar va nuqsonlarning yurak-qon tomir tizimiga ta'sirini o'rganish bugungi kundagi dolzarb masalalarning bir qismidir.

Tadqiqot materiallari: tadqiqot uchun materiallar Samarqand shahar SEO va JSB, BO'G bo'limi statistikasi hamda Samarqand viloyat Ishtixon Tuman Tibbiyot Birlashmasi Politravma bo'limiga salomatligidan shikoyat bilan kelgan bemorlarning kasallik tarixini o'rganish natijasida bemrolar yoshligida boshidan kechirgan turli kasalliklarning tahlillari.


Tadqiqot natijalari: Salomatlik indeksi yordamida bir yillik kasallanishlar va bolalarning turli guruhdagi infeksiyalar va qo'zg'atuvchilar bilan zararlanishini aniqlab olishimiz mumkin.

Salomatlik indeksi (SI) – bu yil davomida umuman, mutlaq kasal bo'lmagan bolalar sonining umumiy tekshirilgan bolalar soniga nisbatining foizlardagi ko'rsatkichidir. Ushbu yordamida bir yilda tekshirishlar olib borish natijasini kasallanishlardan ajratib tahlil qilib olishimiz mumkin. Jami 32 ta bemor uchun o'tqazilgan qiziqarli tahlil natijasida ularning bolalik davri, yashash sharoitlari va ovqatlanish sifati hamda kaloriyasi to'g'risidagi fikrlarni jamlab olishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.



1-diagramma. **Suhbatdan o'tqazilganlar soni bo'yicha tahlili**

Suhbat o'tqazilganlarning 21 tasi erkak kishi, 11 tasi ayol kishini tashkil qiladi. Ulardan 40 yoshgacha bo'lgan bemorlar soni 3 nafar, 40 yoshdan 50 yoshgacha bo'lganlari 7 nafar, 50 yoshdan 60 yoshgacha bo'lganlari 13 nafar, 60 yoshdan oshganlar esa 9 nafarni tashkil qildi.



2-diagramma. **Yoshlar bo'yicha o'tqazilgan tahlil**

Bemorlardan olingan bolalik sharoitlari va kasallanishlar tahlili natijasida quydagilar aniqlandi: bemorlar yoshlik davridagi oilaviy sharoitni yaxshi, o'rtacha qoniqarli deb hisoblaydi. Salomalik indeksi bo'yicha tahlil qilganimizda bemorlar tez-tez yuqumli kasalliklar bilan hastalanuvchilar guruhiga kiruvchilar jami bemorlardan 19 nafari yuqumli va infeksion kasalliklar bilan chalinishlar eng ko'p uchragan va o'zining immuniteti past bo'lgan deb hisoblaydi. Jami bemorlardan 6 nafari yoshlikda revmatizm bilan hastalangan va doimiy davolanib keladiganlarga kiradi. Surunkali tonzillitdan aziyat chekadiganlar esa deyarli 50 yoshgacha bo'lgan bemorlar bo'lib, soni 10 nafarni tashkil qildi. Og'ir mehnat sharoiti va jismoniy faoliyat bilan shug'ullanib kelganlar 26 nafarni tashkil qildi. Shuningdek, bemorlarda ilk bora arterial gipertenziya va turli yurak-qon tomir kasalliklari aniqlanishi qaysi holatda yuzaga kelganligi bo'yicha so'rovnomada bemorlarning aksariyati kuchli shamollash o'tqazilganda va turli kasalliklar bilan hastalangan vaqtda hamda kuchli stress yoki asabiylashish natijasida, shuningdek, spirtli ichimliklar iste'moli ko'pligi bilan eslaydi. Ba'zilari bu holatni irsiyat bilan bog'lashi, oila a'zolari ota-onalari va ulardan yuqorida turuvchi shajarisadagilarning ko'pchiligini aynan yurak-qon tomir kasalliklari bilan og'riganligini yodga oladi. Barcha bemorlarda tana vazni hamda bo'yi o'lchanib, Ketli indeksiga qo'yilganda ulardan 14 nafarida ortiqcha vazn aniqlandi. Tekshirishar va suhbat hamda so'rovnomalar ko'lamini keng va ko'pgina ma'lumotlar olish uchun qulay hamda bemorlar uchun ham tushunarli qilinishga harakat qilindi.

Xulosa: Maqolamizni yakunida xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bolalik davridagi har qanday zararlanish va kasallanishlar inson organizmida albatta o'z izini qoldiradi. Buni isboti misolida organizmda holis bo'uvchi immunitet hujayralarining hosil bo'lishini keltrishimiz mumkin. Bu immunitet hujayralari inson umri davomida yoki vaqtinchalik o'z faoliyatini olib boradi.

ADABIYOTLAR

1. Болалар ва ўсмирлар гигиенаси. Г.И.Шайхова таҳрири остида. Тошкент, 2011. 345с.

2. https://mt.sammu.uz/mod/page/view.php?id=89659

3. Kurbanova H. A. Assessment of parents'awareness of healthy eating, eating habits and frequency of consumption of individual foods //Scientific progress. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 287-291.

4. Naimova, Z., Kurbanova, K., Khakimova, H., & Bulyaev, Z. (2021). Influence Of Ecotoxicants From A Chemical Plant On The Dynamics Of Child Morbidity. *The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research*, 56-59.